

ILMIY MATNDA TASDIQ VA INKOR GAPLARNING
XUSUSIYATLARI

10.00.00- Filologiya fanlari

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Umarovadildora466@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasdiq va inkor tushunchasi barcha tillar uchun umumiy mantiqiy-lisoniy hodisa bo'lib, uning ifodalanishida o'ziga xos holatlar mavjudligi xususida so'z borgan hamda o'zbek tilshunosligida tasdiq va inkor ma'noli gaplar, ularning ifodalovchi shakily-grammatik vositalar tizimi, tasdiq va inkor gaplarning semantic qamrovi bilan bog'liq tomonlari umumnazariy planda monografik tarzda keng ko'lamda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tasdiq gaplar, inkor gaplar, tushuncha, lison, tasdiq ma'no, inkor ma'no, grammatik vosita, sistem tilshunoslik, kategoriya.

CHARACTERISTICS OF AFFIRMATIVE AND NEGATIVE
SENTENCES IN SCIENTIFIC TEXTS

UDC: 10.00.00 – Philological Sciences

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

Master's student of Shahrisabz State Pedagogical Institute

Umarovadildora466@gmail.com

Annotation: This article discusses the concept of affirmation and negation as a universal logical-linguistic phenomenon across all languages, emphasizing the unique features of their expression. In Uzbek linguistics, affirmative and negative sentences, their formal-grammatical means of expression, and aspects related to the semantic scope of these sentence types are examined comprehensively in a general theoretical and monographic framework.

Keywords: affirmative sentences, negative sentences, concept, language, affirmative meaning, negative meaning, grammatical means, systemic linguistics, category.

O'zbek tilshunosligida tasdiq va inkor ma'noli gaplar, ularning ifodalovchi shakliy-grammatik vositalar (markerlar) tizimi; tasdiq va inkor gaplarning semantik qamrovi bilan bog'liq tomonlari umumnazariy planda monografik yo'sinda atroflicha o'rganilgan. Ayniqsa, A.Nurmonovni inkor gaplarni ilmiy asosda o'rganib, o'zbek sistem tilshunosligiga munosib poydevor qo'ydi, deyish mumkin.

Tasdiq va inkor barcha tillar uchun umumiy mantiqiy-lisoniy kategoriya bo'lib, uning ifodalanishida o'ziga xos holatlar mavjud bo'ladi.

Tasdiq va inkor mantiqiy kategoriyalari gap orqali axborot uzatishning asosiy vositalaridandir. Gapdagi fikr, hukm tasdiq yoki inkor yo'li bilan hosil qilinadi. Inkor kategoriyasi odatda kesim orqali shakllanadi. Bunday inkor to'liq inkor tavsifida bo'ladi. Gapda inkorning qisman, to'liq bo'lmagan turi ham ifodalanadi. Bunday inkor kesimdan boshqa gap bo'laklari zimmasida bo'ladi.

Inkor tasdiq gaplar zaminida ham lingvistik yoki nolingvistik vositalar yordamida hosil qilinaveradi. Inkor ifodalovchi lingvistik vositalarga maxsus shakliy-grammatik, leksik-grammatik elementlar kiradi. O'zbek tilida inkor ifodalovchi shakliy-grammatik vositaga faqat bitta (-ma) mansub bo'lsa-da, lekin uning ko'lami juda keng.

-ma qo'shimchasi orqali hosil bo'lgan inkor gaplarda tasdiq ma'nosi ham ifodalana oladi. Bunday hollarda inkor so'roq ma'nosi va uning grammatik markazi bilan qorishib ketadi, bu asosan so'zlashuv uslubi uchun xos. -ma yakka holda qo'llanganda, gapning oddiy (neytral) inkor turi hosil bo'ladi. -ma elementining oddiy inkor ma'nosini ifodalashi nutqning barcha turlari uchun xosdir: *Ba'zan esa bunday sifatlovchilar alohida ta'kidlanmaydi, logik urg'u olmaydi. (O'zbek tili grammatikasi, II tom. 234-b.)* yoki *Senga shunday kunni ravo ko'rguncha, ochiq mozorga kirsam bo'lmaydimi* (so'zlashuv nutqi).

-ma qo'shimchasi bir gap tarkibida qo'shaloq qo'llanilishi ham mumkin. Unda kesimdan anglashilgan tasdiq ma'nosi kuchaytiriladi: gapning kesimi *topilmoq*,

qolmoq kabi bo'lishsiz fe'llardan bo'lganda, *hamma*, *har* kabi so'zlarning pragmatik ma'nolari bo'rtib chiqadi. Ba'zi hollarda tasdiq gapga aylanmaydigan mutlaq inkor gaplar hosil bo'ladi. Bu xol ilmiy matn uchun xos emas.

Masalan:

Bu ishni oxiriga yetkazmay qo'ymaymiz - tasdiq.

Yomg'ir yog'magan kun bo'lmaydi - har kuni.

Bu kitobni o'qimagan o'quvchi qolmadi - hamma.

-guncha shakli ishtirokida tuzilgan gaplarda *-ma* qo'shimchasining qo'shaloq qo'llanishi o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunda shart-istak kabi ma'no jilvalari ta'kid ostiga olinadi: haqiqat qaror topmaguncha, tinchimaysiz. Tasdiq va inkor tavsifidagi semantik o'zgarishlar ravishdoshning boshqa turlarida ham ko'zga tashlanadi;

-gach elementli qurilmalar payt; *-magach* elementli qurilmalar shart-sabab, *-ib* elementli qurilmalar ish-harakat, holat tarzi ma'nolarini ta'kidlash vazifalarini bajaradi. Maqsad ravishdoshlarida inkor shakl qo'llanmaydi: *o'qigani* - *o'qimagani*.

Ular kelgach, biz ketdik (payt).

Ular kelmagach, biz ketdik (sabab).

Tong otib, hamma ishga jo'nadi (tarz) - tong otmay.

Hamma ishga jo'nadi (payt-ta'kid).

Ot (keng ma'noda) + u yoqda tursin andazasida tuzilgan qurilmalar keskin inkor ma'nosini ifodalaydi va shu bilan birga, o'zidan keyin keladigan gapning ham inkor shaklida va inkor ma'nosida bo'lishiga ishora qiladi. *Mirza-chi! U bu ishlarga aralashish u yoqda tursin, birortasini tushunmaydi ham.*

Bunday qurilmalar "yo'q"lik (mavjud emaslik) ma'nosini ta'kid ostiga olish uchun ham xizmat qiladi: *Ovqat u yoqda tursin, choy ham topilmaydi, bu paytda.*

Tasdiq va inkor shaklli shart fe'li yordamida ketma-ket tuzilgan qurilmalar qat'iy tasdiq ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. *Bugun borsam ham, boraman, bormasam ham, boraman.*

Buyruq gaplarning inkor shakli faqat *-ma* shakli yordamida hosil qilinadi. Inkorning boshqa vositalari buyruq gap tarkibida ishtirok etmaydi.

Yo'q so'zi bor so'zining zid ma'noli muqobili sifatida narsa-predmetning mavjud emasligini, *ha* so'zining antonimi sifatida rad-inkor ma'nosini sifatdosh (gap) + egalik qo'shimchasi shaklidagi konstruksiya bilan ishlatilganda esa ish-harakatning yuzaga chiqmaganligini ifodalaydi.

Yo'q so'zi bor so'zining antonimi sifatida *-dan boshqa*, *-dan ortiq*, *-dan yaxshi*, *-dan kuchli* kabi chog'ishtiruvchi vositalar ishtirok etgan gapning kesimi vazifasida qo'llanilganda, biror voqea-hodisa, narsa, belgi zichligining yuqori darajasi alohida ta'kidlanadi. *Go'yo dunyoda undan boyroq, undan baxtliroq qiz yo'q edi. Munisxonning nazarida bundan ortiq qiynoq yo'q. Yo'q* so'zi *-ma* shakli bilan qo'shaloq qo'llanib, "hamma", "barcha" degan tushunchaning kuchayishi uchun xizmat qiladi.

Yo'q so'zi emas bilan birgaliqda qo'llanib, *bor* so'zi ma'nosini bo'yoqdorlik bilan (kamtarlik yoki kesatish) ifodalaydi: *Menda ham aql yo'q emas*.

Yo'q so'zi tarkibida determinant ishtirok etgan bir bosh bo'lakli shaxssiz gapning grammatik asos tavsifidagi asosiy bo'lagi (kesim) tarkibida kelib, inkorning qat'iyligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Dushmanni yengmaguncha, uyga qaytish yo'q.

Yo'q so'zi inkor vazifasida kelganda, ikki holat yuz beradi; gapning kesimi vazifasida keladi: *Bunday xususiyat uyushiq bo'lakda yo'q*. (O'zbek tili grammatikasi, II tom. 210-b.)

Ma'lumki, bunday ikki tomonlama logik-grammatik munosabat oddiy gap bo'laklarida yo'q. (Ko'rsatilgan asar, 223-b.)

Bunda inkor hozirgi zamon tushunchasi bilan bog'liq, lekin ilmiy matnda umumzamonni ifodalaydi. Inkor o'tgan zamon tushunchasi bilan bog'liq bo'lsa, kesim *edi*, *ekan*, *emish* kabi predikativ bog'lamalar bilan shakllanib, gap turli xil pragmatik qiymatlarga ega bo'ladi: hikoya, eshitganlik, gumon va boshqalar. Bu ilmiy bo'lmagan boshqa nutq 1-turlari uchun xos.

Emas soʻzi odatda ot, sifat sifatdosh, ravishdosh va ravishlarga qoʻshilib, oʻshalardan anglashilgan maʼnoni inkor etadi: *Koʻp emas, oʻqigan emas, katta emas, qishloq emas.*

Shuningdek, tasdiq va inkor maʼnoli gap boʻlaklarini oʻzaro bogʻlab fikrning ixchamligi uchun xizmat qiladi: *Sen emas, men boraman.* Bunda gaplardan biri alohida taʼkid ostiga olinadi. Qaysi birining taʼkidlanganligi ohang va situatsiya bilan bogʻlanadi. Lekin kesimi inkor shaklli ana shunday tip gaplarda gapdan anglangan umumiy mazmunda kuchlilik jilvasi mavjud boʻladi. Masalan, *Quruq tuhmatdan boshqa narsa emas.*

Emas soʻzi nimani (qanday maʼnoni) inkor etayotgani uning qanday soʻzlar qurshovida qoʻllanishiga, u qatnashgan sintaktik konstruksiyaga bogʻliq.

Masalan quyidagi gapda *emas* soʻzi “men” olmoshi orqali ifodalangan soʻzlovchini inkor etayotganday tuyuladi. Lekin mazmuniga jiddiyroq eʼtibor berilsa, unda subyektning yakka emasligi taʼkid ostiga olinganligi seziladi.

Bir *men emas*, koʻpchilik bosh qotirdi-yu, jarayon qiyin ketayapti. *Na* yordamchisi inkor ifodalovchi boshqa vositalardan keskin farq qiladi. Uning asosiy farqi shundaki, inkorning boshqa shakllari qoʻshaloq qoʻllanganda, tasdiq maʼnosi kelib chiqadi (*bormay qolmayman, vaqtim yoʻq emas* kabi). Lekin *na* soʻzi bir gap tarkibida necha marta qoʻllanilishidan qatʼiy nazar, inkor maʼnosi saqlanadi. Hatto *na* soʻzi ishtirok etgan gapning kesimi inkor shaklda ham, tasdiq shaklda ham qoʻllanaveradi. *Na* yordamchili boʻlishli hamda boʻlishsiz kesimlar ishtirok etgan qurilmalar tilning sintaktik meʼyoriga koʻra farq qiladi. Bunda boʻlishli kesimning *na* yordamchili koʻrinishlarini meʼyorga muvofiq deyish mumkin. *Na oʻqimaydi, na ishlamaydi. Na oʻqiydi, na ishlaydi.* Keyingi holatda inkor maʼnosi alohida taʼkidlanadi.

Na bogʻlovchisi ancha keng koʻlamda qoʻllanadi: gapning egasi ham, kesimi ham, 2-darajali boʻlaklaridan biri ham shu bogʻlovchi yordamida oʻzaro aloqaga kirishadi va uyushiq boʻlaklar kompleksini yoki bogʻlangan qoʻshma gaplarni hosil qiladi. *Na* soʻzi yana shu xususiyati bilan xarakterlanadiki, boshqa inkor vositalari oʻrni bilan soʻzlovchining betarafligini koʻrsata olgan holda, bu soʻz doimo gap semantik

qurilmasidagi qaysidir elementni ta'kidlaydi. Ba'zan *ham* yuklamasining vazifasini bajaradi. Masalan:

Na xotin, na farzand ko'rmagan. Hayotning zavqini surmagan.

Na bog'lovchisi inkorga ishora bo'luvchi, uni kuchaytiruvchi boshqa vositalar (hech, mutlaqo kabi) bilan birga qo'shilmaydi.

Na bog'lovchisi yordamida birikkan uyushiq bo'lakli gaplarda hech kim, hech narsa kabi umumlashtiruvchi so'z ishtirok etgan bo'lsa, gapning kesimi, albatta, inkor shaklda bo'ladi. Chunki umumlashtiruvchi yuqoridagi so'zlar kesimning tasdiq shaklda kelishiga monelik qiladi: Ezgu umr yo'lidagi izlarni na qor, na bo'ron, na shamol, xullas, hech narsa ko'molmaydi. Shu gapdan agar hech narsa so'zi chiqarilsa, unda xullasga ham o'rin qolmaydi.

O'xshatish ma'nosini ifodalovchi *go'yo - dek, - day* ham ba'zan inkor ma'nosida qo'llanishi, bu ko'proq so'zlashuv nutqida uchrashi mumkin: *Xuddi men biladiganday mendan so'raydi* (so'zlashuv).

Inkor ifodalovchi maxsus vositalardan tashqari, inkorga eshdosh boshqa vositalar ham bor. Ular qatnashgan gaplar *na* yordamchisi bilan qo'llanib, inkor mazmunida bo'ladi.

Hech so'zi inkor ma'nosini bevosita ifodalamasa ham, boshqa ifodalovchi vositalar bilan sintagmatik jihatdan bog'liq bo'ladi. *Hech* so'zi bo'lishsiz kesimlar bilan qo'llanadi. Bunda gap tarkibida inkor shakli qo'shaloq qo'llangan bo'ladi. Inkorning qo'shaloq qo'llanishi qat'iy mutlaq tasdiqni keltirib chiqarishi aniq.

Hargiz, aslo, sira, mutlaqo so'zlari gapda harakat yoki holat ma'nosidagi so'zlar bilan bog'lanib, miqdor-daraja holi vazifasida qo'llanadi va o'zi bog'langan so'z anglatgan inkorning qat'iyligini ta'kid ostiga oladi. Ko'rsatilgan so'zlar har vaqt inkor gap tarkibida qo'llanadi va *hech* so'zi kabi inkorning ishoraviy eshdoshi bo'lib xizmat qiladi. Bu asosan badiiy she'riy nutq uchun xosdir.

Notanish yo'ldoshga bo'lma hech muhtoj,

Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Tasdiq gap tarkibida qatnashuvchi *mutlaqo* so'zi ham qisman inkor ma'nosida keladi. Lekin u tasdiq ma'nosini ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi. Fikringiz mutlaqo to'g'ri (so'zlashuv). Ritorik so'roq gaplarda gapning inkor shakli orqali kuchli tasdiq ma'nosi, tasdiq shakllari orqali esa, aksincha, kuchli inkor ma'nolari ifodalanadi. Bunday gaplarda so'zlovchining yoki o'zga shaxsning ruhiy holati o'ta ta'sirchanlik jilvasi bilan tasvir etiladi.

Koshki, qani (endi), hazilakam, ozmuncha, chakana kabi so'zlar asosan inkor gap tarkibida qatnashadi, lekin bular ilmiy matn uchun xos emas. Bular ko'proq badiiy va so'zlashuv nutqida uchraydi. Shuningdek, *bo'pti (bo'psan)* kabi modal birliklar, *ko'rmoq* fe'lining buyruq shaklidan tuzilgan qurilmalar ham, o'rni bilan, inkorning kuchliligi ma'nosini ifodalaydi. Shunisi borki, bu holat ham ilmiy uslubga xos emas.

Yuqoridagilar asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

-ma inkor ifodalovchi eng faol, keng ko'lamli vosita bo'lib, nutqda o'zi ham, boshqa inkor vositalari bilan ham qo'llana oladi. Bu vosita so'roq gaplarning ritorik va buyruq kabi turlarida yakka holda qo'llanib, tasdiq gaplarda inkor ma'nosini, inkor gaplarda tasdiq ma'nosidan kuchaytirilgan holda ifodalash uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, gapning kesimi tarkibida qo'shaloq qo'llanib, fikrning ta'sirchanligini oshiradi. Boshqa hollarda inkor ma'nosi neytrallashgan gaplarni hosil qiladi.

Yo'q so'zi *ha* so'zining antonim jufti sifatida inkor ifodalovchi boshqa vositalar bilan sintagmatik qamrovda bo'lmaydi.

Yo'q so'zi bor so'zining antonim jufti sifatida emas so'zi bilan bir gap tarkbida qo'shaloq qo'llanishi va tasdiq ma'nosini ta'kidlashi mumkin. *Men ham vijdoni yo'q emas* kabi.

Emas inkor ma'nosini ifodalovchi vosita sifatida *-ma* qo'shimchasiga ko'p jihatdan yaqin turadi. Bu vosita asosan ma'nosi neytral bo'lgan gaplarda qo'llanadi. Shuning uchun ham ilmiy matnga xos inkor gaplar tahlil qilinganda, shakliy-grammatik vosita (*-ma*) va leksik-grammatik vosita (*-emas*)ning qo'llanish chastotasi

inkor ma'nosini ifodalovchi boshqa markerli qurilmalardagi vositalardan faol ekanligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. .Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
2. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'qituvchi, 1995.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1995.
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. -T.; O'qituvchi, 1992, 160 bet.
5. Qabulov V.Q. Funktsional analiz va hisoblash matematikasi. - T.: O'qituvchi, 1996. 206-b.
6. Shoabdurahmonov Sh. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996, 3-son. 13-b.
7. O'rinboyeva D.B.O'zbek so'zlashuv nutqida o'zgarmaydigan so'zlar (yordamchi so'zlar). NDA. Samarqand. 1994. 17 b.
8. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili. Filo.nomz.diss. avtorefer.- Toshkent, 1995, 24 b. 30.
9. Sodiqova M. Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqolalar-matallar. T., "O'qituvchi", 1993